

O'ZBEKISTONDA SUG'ORILADIGAN YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH MASALALARI

Navotova Dilnoza Ibrogimovna - Qarshi davlat universiteti "Geografiya"
kafedrasi katta o'qituvchisi, g.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash ulardan yuqori hosil olish garovidir. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi intensiv rivojlanish pallasida dalalarning meliorativ holatini yaxshilash muammolari kundan kunga ortib bormoqda. Hozirda tuproqshunoslik, agrokimyo, geodeziya va kartografiya sohalarida malakali kadrlar tayyorlash borasidagi dolzarb vazifalardan ko'zlangan asosiy maqsad suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligini oshirish, salbiy jarayonlarning oldini olish hamda oqibatlarini bartaraf etishning ilmiy asoslangan chora-tadbirlari va texnologiyalarini amaliyotga joriy etishdir.

Kalit so'zlar: texnologiya, innovatsiya, irrigatsiya, melioratsiya, modernizatsiya, konsepsiya, kollektor, drenaj

ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ МЕЛИОРАТИВНОГО СОСТОЯНИЯ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ В УЗБЕКИСТАНЕ

Навотова Дилноза Иброгимовна – старший преподаватель кафедры «География»
Каршинского государственного университета, кандидат географических наук (PhD)

Аннотация: Улучшение мелиоративного состояния орошаемых земель является гарантией получения от них высокого урожая. В период интенсивного развития независимой Республики Узбекистан проблемы улучшения мелиоративного состояния земель обостряются с каждым днем. В настоящее время основной целью актуальных задач подготовки квалифицированных кадров в области почвоведения, агрохимии, геодезии и картографии является рациональное и экономное использование водных ресурсов, улучшение мелиоративного состояния орошаемых земель, повышение продуктивности, внедрение научно-обоснованных мер и технологий для предотвращения негативных процессов и ликвидации их последствий.

Ключевые слова: технология, инновация, ирригация, мелиорация, модернизация, концепция, коллектор, дренаж.

ISSUES OF IMPROVING THE AMELIORATIVE CONDITION OF IRRIGATED LANDS IN UZBEKISTAN

Navotova Dilnoza Ibrogimovna - Senior Lecturer, Department of Geography, Karshi
State University, PhD

Abstract: Improving the reclamation of irrigated lands is a guarantee of obtaining high yields from them. In the period of intensive development of the independent Republic of Uzbekistan, the problems of improving the reclamation of fields are increasing day by day. Currently, the main goal of the current tasks of training qualified personnel in the fields of soil science, agrochemistry, geodesy and cartography is the rational and economical use of water resources, the improvement of the reclamation of irrigated lands, increasing their productivity,

the implementation of scientifically based measures and technologies for preventing and eliminating negative processes and consequences.

Keywords: *technology, innovation, irrigation, reclamation, modernization, concept, collector, drainage*

Bugungi kunda respublikada mavjud sug'oriladigan yerlarning deyarli 84%, 3,6 mln gektar sug'oriladigan yer maydoni fermer xo'jaliklari ixtiyoriga birlashtirilgan. Fermer xo'jaliklarning faoliyatini tahlil qilish orqali sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligiga atroflicha baho berish imkoniyati mavjud. Sug'oriladigan yer maydonlaridan to'g'ri va samarali foydalanish tez suratlarda bilan o'sib borayotgan respublika aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga va sanoatning xomashyoga bo'lgan talabini qondirish imkonini beradi.

O'zbekiston so'nggi yillarda barcha sohalar kabi suv xo'jaligi sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar tufayli qishloq mulkdorlarining manfaatlarini ta'minlash, ekin maydonlarining unumdorligini oshirish, yerdan to'g'ri va oqilona foydalanish, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish kabi muhim yo'nalishlarda salmoqli natijalarga erishilmoqda. Ayniqsa, soha taraqqiyotini kafolatlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy bazaning takomillashuvi qishloq xo'jaligi faoliyatida yutuqlarning negizi hisoblanmoqda. Shuningdek agrar sektorni modernizatsiyalash, aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va buning uchun ayni yo'nalishdagi qonun hujjatlari ijrosiga ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasini yanada barqaror rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu tariqa qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'paytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida,

"Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmon qabul qilingan edi. Unga ko'ra, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash uchun quyidagi eng muhim vazifalar belgilangan:

- ✓ Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturlarini shakllantirish va uni amalga oshirishga yondashuvlarni tubdan o'zgartirish;
- ✓ Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha ishlarni moliyalashtirishning ishonchlimexanizmini ta'minlash,

Ushbu tadbirlarni samarali va to'laqonli amalga oshirishni ta'minlash uchun respublikada bir qator yangi tizimlar joriy etilgan. Suv xo'jaligi sohasidagi mavjud muammolar (suv tanqisligi va suv resurslariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, iqlim o'zgarishi, aholi sonining o'sishi, suvga bo'lgan talabning oshib borishi) ni aniqlash, ularni o'z vaqtida bartaraf qilish va chora-tadbirlar ishlab chiqish anchagina mashaqqatni talab etadi. Hisob -kitoblarga ko'ra, global iqlim o'zgarishi natijasida so'nggi 50-60 yil davomida Markaziy Osiyoda muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. 2050 yilgacha Sirdaryo havzasida suv resurslari 5 foizga, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Natijada O'zbekistonda 2030 yilga borib suvga bo'lgan talab 7 mlrd kub metrni, 2050 yilga borib esa, bu ko'rsatkich ikki barobarga ortishi mumkin. Aholi sonining keskin oshib borishi, suvdan foydalanish samaradorligining pastligi hisobiga oxirgi 15 yil ichida aholi jon boshiga suv ta'minoti taxminan ikki barobarga (3048 m^3 dan 1589 m^3 ga) qisqargan. Natijada 2030 yilga borib keskin o'sib borayotgan aholining sifatli suvga bo'lgan talabi 18-20 foiz (2.3 mlrd m^3 dan $2.7\text{-}3.0 \text{ mlrd m}^3$) ga ortishi kutilmoqda.

Bu holat suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va irrigatsiya obyektlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish kabi bir qator chora tadbirlarni ishlab chiqishni zarurat qilib qo'yadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-sonli farmoniga muvofiq tasdiqlangan Konsepsiya sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish va suv xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha qator dolzarb vazifalar hamda ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan.

Mazkur hujjatda 2030 yilga qadar quyidagi ko'rsatkichlarga erishish ham nazarda tutilgan:

- Sug'orish tizimlarining foydali ish koeffitsiyentini 0.63 dan 0.73 gacha oshirish;
- suv ta'minoti past darajada bo'lgan sug'oriladigan yer maydonlarini 560 ming gektardan 190 ming gektargacha kamaytirish;
- sho'rlangan sug'oriladigan yer maydonlarini 226 ming gektargacha kamaytirish;
- suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalarining yillik elektr energiyasi iste'molini 25 foizga kamaytirish;
- barcha irrigatsiya tizimi obyektlariga "Aqlli suv" suv o'lchash va nazorat qilish qurilmalari o'rnatilib, suv hisobini yuritishda raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- 100 ta yirik suv xo'jaligi obyektida suvni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 million gektargacha, shu jumladan, tomchilatib sug'orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish;
- suv xo'jaligida davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida 50 ta loyihani amalga oshirish;

Respublikamizda 2020 yilda 133.6 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan. Shu tariqa o'tgan yillar davomida tejamkor sug'orish texnologiyalari joriy qilingan maydonlar 291,2 ming gektarga yetkazilib, jami sug'oriladigan yerlarning 7 foizga yaqinini tashkil etmoqda. Jumladan, 43,4 ming

gektar, shundan 20,6 ming gektar paxta maydonlarida tomchilatib sug'orish, 2,2 ming gektar maydonda yomg'irlatib sug'orish, 4,2 ming gektar maydonda diskret (pulsar) sug'orish texnologiyasi qo'llanilgan bo'lsa, 84,1 ming gektar maydonda ko'chma egiluvchan quvurlar orqali sug'orish ishlari amalga oshirilgan. Respublikamizda o'ziga xos suv xo'jaligi tizimi barpo qilingan bo'lib, uning maqsadi iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, qishloq xo'jaligini suv bilan ishonchli ta'minlash, shuningdek, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan. Hisobotga ko'ra, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun umumiy uzunligi 142.9 ming km, shundan 106.2 ming km ochiq va 36.7 ming km yopiq gorizontal kollektor-drenaj tarmog'i, shuningdek, 172 ta meliorativ nasos stansiyasi, 3897 ta vertikal drenaj quduq ishlatilmoqda. Paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarining yana bir katta ulushi nasos stansiyalari faoliyatini ta'minlab beruvchi elektr energiya xarajatlari hisoblanadi. Hisobotga ko'ra, suv resurslarining nomutanosib taqsimlanishi va relyefga ega ekanligi natijasida sug'oriladigan yerlarning 60 foizga yaqin qismiga 1687 ta nasos stansiya yordamida suv yetkazib berilib, ularning yillik elektr energiyasi iste'moli 8 mlrd kvт.s ni tashkil etadi. 2.5 million gektar maydonni sug'orish uchun 2.4 trln so'm budjet mablag'lari sarflanmoqda. Bir gektar maydonga suvni nasoslar orqali yetkazib berish uchun budjetdan o'rtacha 800 ming so'm xarajat qilinmoqda. Egatlab sug'orish oqibatida yiliga qariyb 5-6 milliard m³ yoki 20 foiz suv dalada behuda sarflanmoqda.

Bu muammoni hal qilish maqsadida energiya samarador texnologiyalarni joriy qilish va tarmoqda energiya sarfini kamaytirish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda suvdan foydalanish koeffitsiyentini yanada oshirishda irrigatsiya tarmoqlaridagi yo'qotiladigan suv miqdorini kamaytirish, buning uchun esa sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya-melioratsiya obyektlarini rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, tiklash hamda suv tejovchi texnologiyalarni keng qo'llash dolzarb masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги фармони. <https://lex.uz/docs/3107036>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июндаги “Қишлоқ хўжалигида ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5742-сон фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июндаги ПФ-5742-сон фармонига илова. “Қишлоқ хўжалигида ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш концепцияси”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to‘g‘risida milliy hisobot. T.: “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi, 2020. – 87 b.
5. Навотова Д.И. Ер ресурсларидан қишлоқ хўжалигида фойдаланишни тадқиқ қилишнинг назарий-услубий жиҳатлари // Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). Volume 2 | issue 1 | Tashkent,Uzbekistan. 2022. – P. 321-327
6. Файзуллаев М.А. Жанубий Ўзбекистон чўл ҳудудларида қишлоқ хўжалиги ривожланишининг иқтисодий географик омиллари. Геог. фан. фалс. докт. ... дис. автореф. – Т., 2017. – 47 б.
7. Навотова Д. И., Хайдарова Ф. Географические особенности использования зарубежного опыта использования земельных ресурсов в хозяйственных хозяйствах //Экономика и социум. – 2022. – №. 4-3 (95). – С. 198-202.
8. Навотова Д. И. Қашқадарё вилояти қишлоқ хўжалиги географияси ва уни қарталаштиришнинг баъзи масалалари //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 721-725.
9. Navotova D.I. Internal differences in the use of land resources in the agriculture of Kashkadarya region// Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 12. Belgiya. 2023. - P.100-104
10. Faizullaev M.A. Factors of intensive development of agriculture in ensuring food security // **Web of Scientist: International Scientific Research Journal**. Vol. 4 No. 1 (2023) – p. 715-719. ISSN 2776-0979 (Йирик нашриётлар ва маълумотлар базаси, Directory of Open Access Journal №25, Scientific Journal Impact Factor №23) SJIF=6.595
11. Navotova D. I. Theoretical and methodological aspects of resources of land resources in agriculture, Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. P. 40-44.
12. Abdulloyev, A. M., Sattorov, S. Y., Sulaymonov, M. V., Abdaliyeva, S. H., Ochilov, A. B., & Ismatov, T. A. (2022). Foreign Experience in Land Use Management. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.
13. Muzaffarovich A.A., Yarashovich, S.S., Hamdamovna A.S. “Suvdan oqilona foydalanishdagi muammolar”. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, (2022).911-915.
14. Bafoyevich A.S. (2022). Fermer xo'jaligi yer maydonlari o'lchamlarini maqbullashtirish uslubiyatini takomillashtirish.
15. Safarov I. B. Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region) //Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 321-324.

Qurbonov P. R. Iqlim o'zgarishi sharoitida tekislik mintaqasi shaharlarining rivojlanish xususiyatlari (Janubiy O'zbekiston misolida) //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-1. – С. 210-214.